

**Dorivor tirnoqul – Calendula Officinalis L o'simligining shifobaxshlik
xususiyatlari**

Yuldasheva Aziza Azamat qizi

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi

Annotatsiya: O'simlik tarkibi 7,6–7,8 mg% karotin (karatanoidlarning umumiy miqdori savatchaning tilsimon chetki gullar tarkibida 3% ni tashkil etadi), 0,62–0,4 efir moyi, 0,33– 272 0,88% flavanoidlar (kversetin, izoramnetin, izokversetin va boshqalar) kumarinlar (eskuletin, skopoletin, umbelliferon), 3,44% smolalar, 4% gacha shilliq, 10,4–11,2 oshlovchi moddalar, 19% gacha achchiq modda kalenden, 6,84% olma, pentadetsid va oz miqdorda salitsilat kislotalar, triterpen diollar (arnidiol va faradiol), triterpen saponi–kalendulozid hamda alkaloidlar bo'ladi

Kalit so'zlar: Dorivor tirnoqgul, Kalendula, flavanoidlar, eskuletin, skopoletin, umbelliferon.

Tirnoqgul-bo'yi 50 smga boradigan bir yillik o'simlik. Ildizi-shoxlaydigan o'q ildiz , poyasi tik o'sadi, qatiqqina kalta tuklar bilan qoplangan, barglari navbatma-navbat joylashgan, chetlari mayda tishli. Gullari poyasi va shoxlarining uchki tomonida joylashgansavatcha ko'rinishida to'pgullar hosil qiladi. Mevlari-urug'li meva. Iyundan kech kuzgacha gullaydi, iyul oxiridan boshlab mevlari yetilib boradi. Bu o'simlikning gullarida karotin va unga yaqin turadigan boshqa moddalar, efir moylari, azotli shilimshiq moddalar, organik kislotalar bor. Tirnoqgulning yer ustki qismida kalenden degan achchiq modda, oshlovchi moddalar, triterpendiollar va saponinlar topilgan. Urug'larida moy va bir oz miqdorda alkaloidlar bor.

Ta'siri va qo'llanilishi: tirnoqgulning juda yaxshi shifobaxsh xossalari borligi, ko'pgina dardlarga davo bo'lib, ko'ngilga orom berishi qadimdan ham ma'lum bo'lgan. Tabiblar undan siydik haydaydigan, balg'am ko'chiradigan va odamni terlatadigan dori sifatida foydalanishgan. Badanning dog' tushgan joylari, gush kasalligi, mastit (sut bezi

yallig'lanishi) ga davo qilishda shu o'simlikdan foydalanishgan. Bundan tashqari, tirnoqgulni gepatit, xolesistit, yara kasalliklari, gepertoniya, siydik-tosh kasalligi, davosiga ham ishlatilgan. Tomoq og'rig'i, tish atrofidagi to'qimalar kasalliklarida buyuriladi. Ibn Sino ham tirnoqgul "kal" kasalligi, bealngiga davo qilish uchun ishlatgan, ilon-chayon chaqqan odamlarga buyuriladi. Farangistonda bu o'simlik gullaridan yara-jarohatlarini bittiradigan, odamni terlatadigan vosita tariqasida keng foydalaniladi. Hind tabobatida uni odamni quvvatga kirgazib, tetiklantiradigan dori sifatida buyuriladi.

Tirnoqgul damlamasi: tirnoqgulli choysaratoni davolashda eng samarali vositalardan biridir. Gullari va urug'i bakteriyalarga qarshi kurashuvchi hususiyatga ega. Ayniqsa tirnoqgulni suv bug'ida ozgina ushlab turib, keyin choyga qo'shib damlashni tavsiya qilinadi. Haftada 3-4 kun albatta ushbu choyni ichish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yurak-qon tomir tizimining kasalliklari: ko'p sonli yurak-qon tomir kasalliklari bilan tirnoqgul tananing umumiy holatini yaxshilashga va hech qanday nojo'ya ta'sirlarga olib kelmaslikka yordam beradi. Tirnoqgul yurak-qon tomir tizimi bilan quyidagi muammolarni davolash uchun ishlatiladi:

- Taxikardiya tez yurak urishi bilan namoyon bo'ladi.
- Aritmiya – yurakning beqarorligi;
- Ateroskleroz;
- Gipertenziya;
- Yurak etishmovchiligi;
- Nafas qisilishi;
- Hipotansiyon

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Balyan H.S., Gupta P.K., Kumar S., Dhariwal R., Jaiswal V., Tyagi S., Agarwal P. Gahlaut V., Kumari S. Genetic improvement of grain protein and other health-related constituents of wheat grain. Plant Breeding. 2013. available at <http://wileyonlinelibrary.com>. DOI 10.1111/pbr.12047.
2. Dorofeev V.F., Udachin R.A., Semenova L.V., Novikova M.V., Grad- chaninova O.D., Shitova I.P., Merezhko A.F., Filatenko A.A. Pshe- nitsy mira [World Wheats]. Leningrad, Agropromizdat Publ., 1987.
3. I.V.Belolipov, X.Ch.Buriev, E.B.Juraev, R.Z.Murodov "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklar genafondini saqlash, madaniylashtirish va tabobatda foydalanish". Toshkent 2020 y.
4. Agroximiya (Pod red. B. A. Yagodina). Moskva, 1982 y.
5. Ahmedov O', Ergashev A, Abzalov A, Yulchieva M Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi Toshkent – 2009 y.